

Olib borilgan fenologik kuzatuvlar bo'yicha vegetatsiya davri o'rganilganda Tizma-1 pishish davri 85-90 kun, Tizma-2 87-90 kun, Tizma-3 88-90 kun, Tizma-4 105-110 kun bo'lganligi hamda O'zbekiston-2018 navi 115-120 kun bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa. Makkajo'xoring xoriy tizmalari vegetatsiya davri bo'yicha o'rganilganda "O'zbekiston-2018" naviga nisbatan vegetatsiya davri qisqaroq ekanligi, ya'ni 15-20 kungacha qisqaroq ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Асыка, Ю.А. Гибрид кукурузы. Прогноз 132СВ / Ю.А. Асыка // Кукуруза и сорго. – 2001. – № 1. – С. 24.

2. Багринцева В.Н. Урожайность гибридов кукурузы при разной густоте стояния растения / В.Н. Багринцева, Т.И. Борщ, И.А. Шарапова // Кукуруза и сорго. – 2001. – № 5. – С 2–4.

3. Бельтюков, Л.П. Применение удобрений под зерновые культуры на Дону / Л.П. Бельтюков, А.А. Гриценко. – Зерноград, 1993. – 226 с.

UO'K: 633.15

MAKKAJO'XORINING XORIY TIZMALARINI AYRIM QIMMATLI XO'JALIK BELGILARI BO'YICHA O'RGANISH

S.G'.Jamolov-bo'lim boshlig'i,

B.D.Allashov-ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, q.x.f.n., K.I.X.

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti, allashev-b@mail.ru

Annotasiya. *Ma'lumki chorvachilikni mufaqqiyatli rivojlantirishda ozuqa bazasi muhim ahamiyatga ega hisoblabai. Ozuqa bazasini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi erlaridan samarali foyalanish, yuqori hosil beraigan ozuqabop ekinlarni ekib etishtirish kerak bo'ladi. Makkajo'xori ekini ozuqabop ekinlar ichida yuqori hosildor ekinlardan biri hisoblanadi. Makkajo'rini ozuqa uchun ekib etistirishda uni qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada makkajo'ri ekinining xoriy tizmalarini ayrim qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Chorvachilik, ozuqa bazasi, ozuqabop ekinlar, makkajo'ri, nav, tanlash, tizma, qimmatli xo'jalik belgilar.*

Summary. *It is known that the feed supply is important for the successful development of livestock farming. To strengthen the food supply, it is necessary to effectively use agricultural land and grow high-yielding forage crops. Corn is one of the high-yielding crops among feed crops. When growing corn for feed, it is important to study it for economically valuable traits. The article presents the results of studying foreign lines of corn crops for some valuable economic traits.*

Key words: *Animal husbandry, forage base, forage crops, corn, variety, breeding, selection, economically valuable traits.*

Kirish. Makkajo'xori dunyo dehqonchiligida ko'p tarqalgan eng qimmatli va serhosil ekin hisoblanib, donli ekinlar orasida umumiy don hosili bo'yicha ikkinchi, ekin maydoni bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Yem-xashak uchun makkajo'xoring doni va poyasi ishlatiladi. Uning doni juda to'yimli (1 kg makkajo'xori doni 1,34 kg ozuqa birligiga ega) hisoblanib, chorva hayvonlari va parrandalarga butunligicha yoki yorma (maydalangan) holida beriladi. Makkajo'xoring poyasi mollarga yashil holicha beriladi. Makkajo'xori donidan tayyorlangan turli xil oziq-ovqat mahsulotlari, undan xashak hamda doni sut-mum pishish davrida o'rilganda esa yuqori sifatli

silos tayyorlash mumkin. Makkajo'xori silosining bir kilogrammi to'yimliliği jihatidan 0,20-0,25 ozuqa birligiga, so'tasi bilan birga bostirilganda esa 0,40 ozuqa birligiga teng bo'ladi.

Makkajo'xori yetishtirishning don texnologiyasi ozuqa birliklarining yuqori hosildorligi bilan yuqori sifatli xom ashyo ishlab chiqarishni ta'minlaydi (Kravsov, I.A., Kravsov, I.V. Fedotkin, 2001 Kramarev, S.M., L.N. Skripnik, Yu.I. Usenko, T.A. Juravel, L.Yu. Xorseva, T.F. Yakovishina 2002).. Biroq, don texnologiyasi bo'yicha yetishtirilgan makkajo'xorining hazm bo'ladigan oqsili bilan ozuqa birligining ta'minlanishi atigi 50-55 g ga yetadi. Bundan tashqari, makkajo'xori oqsilida hayvon organizmi uchun ajralmas aminokislotalar - lizin va triptofan kam uchraydi (A.N. Kuchmiyev, Ye.P. Nedbaylo 1980, A.N. Kuchmiyev, Ye.P. Nedbaylo va boshqalar 1982).

Makkajo'xori silosining ozuqaviy qiymatini oshirishning ko'plab usullari mavjud, ammo ular turli sabablarga ko'ra keng qo'llanilishini topmaganlar (S.K. Mironov 1988).

Tadqiqot maqsadi. Makkajo'xorining xorijiy tizmalarini ekish va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish. Makkajo'xorining xorijiy tizmalari mahalliy institutda yaratilgan navi bilan taqqoslab o'rganish. Bunday maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish mo'ljallangandi:

- makkajo'xorining 4 ta xorijiy tizmalarini 2 ta qaytariqda ekish
- agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bir xilda olib borish
- qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish.

1-jadval

Makkajo'xori nav va tizmalarini qimmatli xo'jalik belgilari

Qimmatli xo'jalik belgilar	Nav, duragay yoki namuna nomi									
	*T-1	T-2	T-3	T-4	**O'z-2018	T-4	T-3	T-2	T-1	O'z-2018
Takrorlanish nomeri	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2
Bosh poya balandligi, sm	255	244	232	325	360	310	260	240	260	300
1-so'tagacha balandligi, sm	88	81	84	101	155	92	85	80	90	110
1 pogono metrdagi										
O'simliklar soni	35	35	30	32	33	33	31	32	34	36
Shundan mahsuldor o'simliklar soni	35	35	30	32	33	33	31	32	34	36
So'talar soni	71	70	62	65	68	67	63	66	68	75
Barg soni	450	415	330	570	535	560	325	402	430	580
Poyasi doni bilan umumiy vazni, kg	17.2	19.8	19.4	19.9	23.3	18.5	19.2	19.4	17.9	20.5
Don vazni so'tasi bilan, kg	8.5	11.1	10.1	7.7	10.7	8.6	10.6	9.6	9.6	10.9
1 dona so'ta vazni gr	287	274	309	295	330	292	319	254	363	315
So'ta uzunligi va diametri, sm	17.5	19.5	22.5	22.0	26.0	23.5	23.5	21.5	20.5	26.5
So'tadagi donlar qator soni	18	16	16	14	16	14	16	16	20	18
1 dona so'tadagi donlar soni	792	704	768	672	784	672	768	768	828	768
Shundan chirigan va yaroqsizlari	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Don hosildorligi s/ga	85	11	101	77	107	86	106	96	96	109
Pichan hosildorligi, s/ga	172	198	194	199	233	185	192	194	179	205
Silos hosildorligi s/ga	516	594	582	897	699	555	576	582	537	615

*-Tizma

**.-O'zbekiston-2018 navi

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda umumiy agrotexnikaviy usullardan foydalanilgan. Tadqiqot masalalarini o'rganishda umum agrotexnikaviy usullardan: urug', suv, dorilar xarajati,

hosildorlik, va uning sifati o'rganildi. Xorijiy tizmalar, hamda makkajo'xorining "O'zbekiston-2018" navi bilan taqqoslab ikkita takrorlanishda ekilgan.

Tadqiqot natijalari. Makkajo'xorining xorijiy tizmalari bosh poya balandligi, birinchi so'tagacha bo'lgan balandlik, bir o'simlikda barglar va so'talar soni ko'k massa va don hosildorligi kabi ayrim qimmatli xo'jalik belgilar o'rganildi.

Bunda har nav va tizmalar bo'yicha alohida alohida 10 kv. m. maydondagi holat tahlil qilindi. Ushbu maydonda joylashagan o'simliklar soni, har bir o'simlikdagi barglar, so'talar ssoni sanab chiqildi. O'simlik poyasi doni bilan birga, hamda so'talari alohida elektron tarozida tortib vazni o'rganildi.

Ayrim qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

Makkajo'xori nav va tizmalari chorvachilik uchun muhim ko'rsatkichlardan bo'lgan boshpoya balandligi, har bir o'simlikdagi o'rtacha barglar soni, shuningdek barg sathlari, ya'ni eni va uzunligi ham o'rganildi va ular natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Makkajo'xori nav va liniyalarining ayrim qimmatli xo'jalik belgilari

Nav va tizmalar	Bir o'simlik-dagi o'rtacha barglar soni, dona	Boshpoya balandligi, sm	Barg eni, sm	Barg uzunligi, sm
Tizma-1	13	255	8.4	78
Tizma-2	12	244	8.8	80
Tizma-3	11	232	10.8	81
Tizma-4	18	325	7.8	83
O'z-2018	16	360	9.5	96
Tizma-4	15	290	9.2	81
Tizma-3	15	285	9.5	82
Tizma-2	12	210	11.4	78
Tizma-1	11	260	9.5	90
O'z-2018	17	295	9.5	100

Demak, jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, har bir o'simlikdagi barglar o'rtacha soni 11 donadan 18 donagacha bo'lganligi aniqlandi, bunda barglar soni 4-tizmada ko'proq ekanligi, ya'ni birinchi takrorlanishda 18 ta bo'lganligi kuzatildi. Makkajo'xorining O'zbekiston-2018 navida har bir o'simlikdagi barglarning o'rtacha soni birinchi takrorlanishda 16 ta bo'lganligi kuzatildi. Barg sathi, ya'ni barg eni bo'yicha ko'rsatkichlar 7.8 sm dan 11.4 sm gacha oraliqda bo'lganligi, barg eni bo'yicha past ko'rsatkich 4-tizmada, yuqori ko'rsatkich 2-tizmada bo'lganligi kuzatildi. Barg uzunligi bo'yicha esa ko'rsatkichlar 80 sm dan 100 sm gacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. Barg uzunligi bo'yicha past ko'rsatkich 2-tizmada, yuqori ko'rsatkich O'zbekiston-2018 navida kuzatildi. Boshpoya balandligi bo'yicha 210 sm dan 360 sm gacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. Demak, boshpoya balandligi 2-tizma past bo'lganligi O'zbekiston-2018 navida yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Xulosa. Makkajo'xorining xorijiy tizmalari ayrim qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganilganda boshpoya balandligi 2-tizmada past bo'lganligi, barglar soni 4-tizmada ko'proq ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кравцов, И.А. Продуктивность родительских форм гибридов кукурузы и густота посева / И.А. Кравцов, И.В. Федоткин // Кукуруза и сорго. – 2001. – № 3. – С. 12–13.
2. Крамарев, С.М. Интенсивность поступления основных макроэлементов в растения кукурузы в онтогенезе / С.М. Крамарев, Л.Н. Скрипник, Ю.И. Усенко, Т.А. Журавель, Л.Ю. Хорсева, Т.Ф. Яковишина // Агрохимия. – 2002. – № 12. – С. 21–30.